

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI**  
**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM**  
**VAZIRLIGI**

**70910217-«Urologiya» mutaxassisligi**

**MALAKA TALABLARI**

**Toshkent - 2022**

**KELISHUV VARAG'I**

**ISHLAB CHIQLDI:**

**Toshkent tibbiyot akademiyasi**

Rektor  A.K. Shadmanov

202\_ yil " " \_\_\_\_\_

M.O'



**KELISHILDI:**

**O'zbekiston Respublikasi  
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi  
huzuridagi Oliy ta'limni  
rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or  
texnologiyalarni tatbiq etish markazi**

Direktor  Sh. Yakubov

202\_ yil " " \_\_\_\_\_

M.O'



**Toshkent pediatriya tibbiyot  
instituti**

Rektor  B.T. Daminov

202\_ yil " " \_\_\_\_\_

M.O'



**O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni  
saqlash vazirligi  
Fan va ta'lim boshqarmasi**

Boshliq  O'.S. Ismailov

202\_ yil " " \_\_\_\_\_

M.O'.



**Toshkent shahar sog'liqni saqlash  
bosh boshqarmasi**

Boshliq  A.V. Alimov

202\_ yil " " \_\_\_\_\_

M.O'.



### **ISHLAB CHIQLIGAN VA KIRITILGAN:**

Toshkent tibbiyot akademiyasi

### **TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Oliy va o'rta maxsus, professional ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashining 2021 yil «29» 08 dagi 5 - sonli yig'ilishida ma'qullangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021 yil «5» 09 dagi 302 - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

### **JORIY ETILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy malaka ramkasiga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

T/r	bet
1. 70910217-Urologiya magistratura mutaxassisligining umumiy tasnifi .....	4
1.1 Qo'llanish sohasi .....	4
1.1.1. 70910217-Urologiya magistratura mutaxassisligi malaka talabini qo'llanilishi.....	4
1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2 70910217-Urologiya mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlar tavsifi.....	4
1.2.1. 70910217-Urologiya mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari.....	5
1.2.2. 70910217-Urologiya mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari.....	5
1.2.3. 70910217-Urologiya mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....	6
1.2.4. 70910217-Urologiya mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy vazifalari.....	6
2. 70910217-Urologiya ta'lim mutaxassisligi bo'yicha magistrnlarning kasbiy kompetentsiyalariga qo'yiladigan talablar.....	8
2.1. Umumiy kompetentsiyalar.....	8
2.2 Kasbiy kompetentsiyalar.....	10
3. Bibliografik ma'lumotlar .....	12
Kelishuv varag'i.....	12

## **1. 70910217-Urologiya magistratura mutaxassisligining umumiy tasnifi**

**70910217-Urologiya** magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi oliy ta'limning dasturi amalga oshiriladi. Mutaxassislik bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining me'yoriy muddati 3 yil.

### **1.1. Qo'llanish sohasi**

**1.1.1. 70910217-Urologiya magistratura mutaxassisligi malaka talabini qo'llanilishi.**

Malaka talabi **70910217-Urologiya** magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistr tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari uchun majburiy talablar majmuasini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

mazkur magistratura mutaxassisligi bo'yicha fan, texnika va ijtimoiy soha yutuqlarini hisobga olgan holda o'quv reja va modul dasturlarini sifatli ishlab chiqish, samarali amalga oshirish va yangilash uchun mas'ul – oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari;

magistratura mutaxassisliklarining o'quv reja va modul dasturlarini o'zlashtirish bo'yicha o'quv-tarbiya faoliyatini samarali amalga oshiruvchi barcha xodimlari va talabalari;

o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari);

bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

oliy ta'lim muassasasini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli Davlat organlari;

magistratura mutaxassisligini ixtiyoriy tanlash huquqiga ega bo'lgan bakalavrlar va boshqa manfaatdorlar.

**1.2. 70910217-Urologiya mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining tasnifi.**

**1.2.1. 70910217-Urologiya mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari:**

70910217-Urologiya magistratura mutaxassisligi – Oliy va o'rtta maxsus, kasb-hunar ta'lim tizimi, malaka oshirish, qayta tayyorlash muassasalarida mutaxassislikka oid modullarni o'qitish;

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, viloyatlar sog'liqni saqlash boshqarmalari, ilmiy-tadqiqot markazlarida ilmiy tadqiqot faoliyatini yuritish, turli mulkchilik shakllaridagi korxonalarida, nodavlat va notijorat tashkilotlarida, markazif va mahalliy davlat boshqaruvi organlarida, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarida davolash-profilaktik faolitni tashkil etish va boshqarishga oid kompleks masalalarni hal etish, shuningdek sog'liqni saqlash tizimidagi davolash va profilaktika muassasalarida faoliyat yuritish kasbiy ko'nikmalariga, mutassaddilik qobiliyatiga yo'naltirilgan inson faoliyatining vositalari, usullari, metodlari va uslublarining majmuasini qamrab oladi.

Mutaxassislik bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda magistrnlarning kasbiy faoliyat sohalarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin.

### **1.2.2. 70910217-Urologiya mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari:**

- oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat;

- fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarida hamda oliy ta'lim muassasalarida ilmiy tadqiqot qaoliyati va jarayonlar;

- sog'liqni saqlash tizimidagi jarayonlar, sog'liqni saqlash tizimiga tegishli dasturlar, standartlar, ilmiy maqolalar, tezislar, ilmiy-tadqiqot ishlari, me'yoriy hujjatlar, ma'lumotnomalar, hisobotlar;

- tibbiyot asbob-uskunalari, dori vositalari, muolajalar, resurslar, vositalar, usul va uslublar majmuasi;

- jamiyat, aholi, oila, bemorlar, tibbiy yordamga muhtoj qariyalar, kattalar va bolalar, ayollar va erkaklar;

- sog'liqni saqlash tizimidagi davolash va profilaktika bo'yicha davlat va xususiy muassasalar, viloyat, shahar, tuman davolash-profilaktika muassasalari rahbarlari va mas'ul shaxslar;

- ilmiy-tadqiqot va ilmiy-ishlab chiqarish muassasalari va tashkilotlari, tibbiy yordam xizmatlariga ega bo'lgan xususiyliigi istalgan shaklda bo'lgan ishlab chiqarish birlashmalarida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar;

- ilmiy tadqiqot jarayoni;

- o'quv jarayoni.;

### **1.2.3. 70910217-Urologiya mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:**

- *ilmiy-tadqiqot faoliyati;*
- *davolash va profilaktika faoliyati;*
- *tibbiy-ijtimoiy faoliyati;*
- *tashkiliy-boshqaruv faoliyati;*
- *oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash ta'lim muassasalarida ilmiy-pedagogik hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida pedagogik faoliyat (o'rnatilgan tartibda);*
- *konsalting xizmati faoliyatini o'z ichiga oladi.*

Mutaxassislik bo'yicha tayyorlangan magistrlar kasbiy faoliyatlarining muayyan turlari ta'lim jarayonining manfaatdor ishtirokchilari bilan hamkorlikda oliy ta'lim muassasasi tomonidan aniqlanadi.

### **1.2.4. 70910217-Urologiya mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy vazifalari:**

**70910217-Urologiya** mutaxassiligi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'ektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

#### **Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

- ilmiy-tadqiqotlarni o'tkazish, yangi ilmiy hamda amaliy natijalarni olish, olingan natijalarni tahlil qilish va amaliyotga tadbiiq qilish;
- echilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning kontseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish.

#### **Davolash va profilaktik faoliyatida:**

- bemorlarda buyrak, siydik yo'llari va erkaklar jinsiy a'zolari kasalliklarini aniqlash va (noinvaziv va kaminvaziv usullarni qo'shib) davolash;
- tezkor yordam ko'rsatish uchun zarur bo'lgan to'la hajmdagi ko'nikmaga ega bo'lgan yuqori malakali mutaxassis-urolog sifatida mustaqil amaliy faoliyat ko'rsatish;
- aholi orasida sog'lom turmush tarzini, ratsional ovqatlanishni targ'ibot qilishi;
- keng tarqalgan urologik kasalliklarni, oldini olish va kamaytirish uchun profilaktik tadbirlarni amalga oshirish.

#### **Tashkiliy-boshqaruv faoliyatda:**

- sog'liqni saqlash tizimida tibbiy jamoalarni boshqarishni ilmiy va amaliy asosda tashkil qila bilishi;

- axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni egallagan bo'lishi;

- uzluksiz ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini tashkil etish va o'tkazilishiga ko'maklashish (o'quv personalini), tadqiqotlarda ishtirok etish, ma'lumotlarni to'plash, umumlashtirish va tahlil etish, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar hamda oliy ta'lim muassasalarida o'quv mashg'ulotlarini o'tish, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarni egallash va tadbiriq etish bo'yicha guruhlarni boshqarish.

### **Tibbiy-ijtimoiy faoliyatida:**

oila va alohida aholi guruhlari o'rtasida inson salomatligiga ta'sir qiluvchi ijtimoiy-gigienik, ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlashi va xavf omillarini bartaraf qilish.

### **Oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash ta'lim muassasalarida ilmiy-pedagogik hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida pedagogik faoliyatda (o'rnatilgan tartibda):**

- oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimining ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid tayyorgarlik yo'nalishida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha nazariy va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish, jumladan o'quv ustaxonalarida o'tkazish;

- o'quv fanlarini o'qitish uslubiyotini egallashi;

- zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib noan'anaviy o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;

- o'qitilayotgan fanlar bo'yicha darslarni o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv-uslubiy hujjatlarni tuzish, tayyorlash va rasmiylashtirish;

- o'qitilayotgan fan bo'yicha mashg'ulotlarni o'tkazish uchun o'qitishning texnik vositalaridan foydalanish;

- mustaqil ta'lim va ijodiy qidiruv natijasida o'qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi uslublar, vositalar va shakllar tizimida o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borish;

- elektron (e-learning) va mobil (m-learning) o'qitish uchun o'quv-uslubiy majmualarni ishlab chiqish;

- uzluksiz ta'lim tizimining Davlat ta'lim standartlari, Davlat talablari va boshqa o'quv-me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish.

### **Konsalting xizmati faoliyatida:**

- mutaxassisliklar bo'yicha sog'liqni saqlash tizimlari sohasida mavjud holatning analitik sharhini ishlab chiqish.



## **2. 70910217-Urologiya ta'lim mutaxassisligi bo'yicha magistrnlarning kasbiy kompetentsiyalariga qo'yiladigan talablar**

### **2.1. Umumiy kompetentsiyalar:**

- ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo'lishi, umummetodologik fanlar asosini, davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi;
- ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil taxlil qilish;
- milliy ma'naviy va umuminsoniy qadriyatlar bo'yicha o'z nuqtai nazarini og'zaki va yozma bayon etishi, milliy g'oyaning nazariy asoslarni anglagan holda "Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot qurish" bosh g'oyasining mohiyatini hamda uning asosiy g'oyalar bilan mutanosibli va farqini bilish;
- tabiat va jamiyatda yuz berayotgan jarayon va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo'lishi, insonning ma'naviy qiyofasi haqida bilimlarga ega bo'lishi, ulardan hayotda va kasbiy faoliyatida hamda zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda foydalana olish;
- shaxsning inson, jamiyat, atrof muhitga bo'lgan munosabatini tartibga soluvchi huquqiy va axloqiy me'yorlarni kasbiy faoliyatida qo'llay olish;
- yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtira olishi, takomillashtirishi va o'z mehnatini ilmiy asosda tashkil qila bilish;
- o'zining individual bilimlariga tayangani holda ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan muammolarni tushunishi va ularni tahlil qilish;
- o'z faoliyatida me'yoriy huquqiy hujjatlardan foydalana bilishi;
- fikrlash madaniyati, muayyan tafakkur uslubiga, og'zaki va yozma nutqini aniq bayon qilish;
- o'zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko'rib chiqish va tahlil qilishi, ulardan ilmiy faoliyatida foydalana olish;
- ilmiy faoliyati natijalarini his qilishga yo'naltirilgan ijtimoiy mas'uliyat shakllangan bo'lishi;
- kasbiy faoliyatda o'zlashtirgan fanlarning asosiy qonunlaridan foydalanishi, metodlarni tasniflashi, metodologik tamoyillardan ilmiy faoliyatida foydalana olish;
- xorijiy tillardan birini ilmiy muloqot va kasbiy malaka almashish vositasi sifatida egallagan bo'lish;
- axborotni to'plash, saqlash, ularga ishlov berish va ulardan foydalanish usullarini egallash;

- o'zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilish;
- axborot, bilim, ma'lumotni bir-biridan farqlash malakasiga ega bo'lishi, axborot texnologiyalaridan foydalana olish;
- bugungi axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot texnologiyalarining mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xuruji xavfi va tahdidlarni anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish;
- internet tarmog'idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalariga ega bo'lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash;
- pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishi;
- ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashish;
- ilmiy faoliyati natijalari bo'yicha davlat va xorijda e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash;
- patent olish uchun me'yoriy hujjatlar tayyorlay olish;
- davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo'lishi lozim.

## **2.2. Kasbiy kompetentsiyalar:**

- bemorlarda urologik kasalliklarini aniqlash va (noinvaziv va kaminvaziv usullarni qo'llab) davolash ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- tezkor yordam ko'rsatish uchun zarur bo'lgan to'la hajmdagi ko'nikmaga ega bo'lgan yuqori malakali mutaxassis-urolog sifatida mustaqil amaliy faoliyat ko'rsatish ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- aholi orasida sog'lom turmush tarzini, ratsional ovqatlanishni targ'ibot qilish ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- keng tarqalgan urologik kasalliklarni, xavfli, o'ta yuqumli infeksiyon kasalliklarni, jumladan COVID-19 infeksiyasini tarqalishini oldini olish, kamaytirish uchun profilaktik tadbirlarni amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- oila va alohida aholi guruhlarini o'rtasida inson salomatligiga ta'sir qiluvchi ijtimoiy-gigienik, ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlashi va xavf omillarini bartaraf qilishni bilishi;
- oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimining ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid tayyorgarlik yo'nalishida nazarda tutilgan o'quv modullari bo'yicha nazariy, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini, jumladan o'quv ustaxonalarida o'tkazish ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- o'quv modullarini o'qitish metodikasini egallashi ko'nikmalariga ega bo'lishi;

- zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib noan'anaviy o'quv mashg'ulotlarini o'tkazishni bilishi;
- o'qitilayotgan modullar bo'yicha darslarni o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv-metodik hujjatlarni tuzish, tayyorlash va rasmiylashtirishni amaliyotga tadbiq etishni bilishi;
- o'qitilayotgan modul bo'yicha mashg'ulotlarni o'tkazish uchun o'qitishning texnik vositalaridan foydalanishni bilishi;
- mustaqil ta'lim va ijodiy qidiruv natijasida o'qitilayotgan modul hamda pedagogik faoliyat sohasidagi metodlar, vositalar va boshqa sohalarida o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borishi;
- uzluksiz ta'lim tizimining Davlat ta'lim standartlari, malaka talablari va boshqa o'quv-me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqishni bilishi;
- mutaxassislik bo'yicha sog'liqni saqlash tizimi sohasida mavjud holatlarning analitik sharhlarini ishlab chiqish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- sog'liqni saqlash tizimida tibbiy jamoalarni boshqarishni ilmiy va amaliy asosda tashkil qila bilishi;
- hamkasblar, hamshiralar va kichik tibbiy xodimlar, bemorlar va ularning qarindoshlar bilan muloqotda tibbiy faoliyatning axloqiy va deontologik jihatlariga rioya qilish;
- individual rehabilitatsiya marshrutini tuzishni bilish;
- rehabilitatsiya jarayonida bemorning o'zgaruvchan ehtiyojlarini baholash, prognoz qilish va monitoring qilish, rehabilitatsiya xizmatlarini yetkazib beruvchilar va iste'molchilar o'rtasida samarali hamkorlikni tashkil etish, rehabilitatsiya infra tuzilmasi va undan rehabilitatsiya maqsadlarida foydalanish imkoniyatini bilish, rehabilitatsiya dasturlarining samaradorligi va sifatini nazorat qilish.
- axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni egallagan bo'lishi;
- uzluksiz ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini tashkil etish va o'tkazilishiga ko'maklashish (o'quv personal), tadqiqotlarda ishtirok etish, ma'lumotlarni to'plash, umumlashtirish va tahlil etish, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar hamda oliy ta'lim muassasalarida o'quv mashg'ulotlarini o'tish, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarni egallash va tadbiq etish bo'yicha guruhlarni boshqarish qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim.
- ilmiy-tadqiqotlarni o'tkazish va yangi ilmiy hamda amaliy natijalarni olish;
- echilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning kontseptual va nazariy modellarini ishlab chiqishni bilish;

## **2. Bibliografik ma'lumotlar**

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

### **Tayanch so'zlar:**

Urologiya, andrologiya, kompetentsiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistratura mutaxassisligining asosiy ta'lim dasturi, profil, o'qib-o'rganish natijalari, o'quv sikli, tibbiy bilim, sog'liqni saqlash tizimi, klinika, laborator tashxislash usullari, amaliy ko'nikmalar, kasalliklar, davolash muassasalari, etiologiya, patogenez, profilaktika, davolash usullari, diagnostika.